**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLIY VA URTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**Z.M. Bobur nomidagi Andijon Davlat Universiteti**

**Pedagogika fakulteti psixologiya kafedrasi**

**Psixologiya yo’nalishi magistranti**

**Ataboeva Zulfiya**

# O’SMIRLARDA VATANPARVARLIK QADRIYATLARINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Andijon – 2014 yil**

**MAVZU: O’SMIRLARDA VATANPARVARLIK QADRIYaTLARINI ShAKLLANTIRIShNING IJTIMOIY PSIXOLOGIK XUSUSIYaTLARI**

**REJA**

**KIRISh**

**1BOB PSIXOLOGIYa FANIDA O’SMIRLARDA VATANPARVARLIK QARIYaTLARINI ShAKLLANTIRISh MUAMMOSINING NAZARIY-METODOLOGIK XUSUSIYaTLARI**

1.1.O’smirlarda vatanparvarvarlik qadriyatlarini shakllantirish masalasining o’rganilganlik xolati
1.2O’smir shaxsi rivojlanishining yosh va ijtimoiy psixologik xususiyatlari
Bob bo’yicha xulosalar

**2bob O’SMIRLIK DAVRIDA VATANPARVARLIK QADRIYaTLARINI ShAKLLANIShINING IJTIMOIY PSIXOLOGIK OMILLARI**

2.1Ta’lim jarayonida vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirish
2.2.O’smirlarda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllanishida oilaviy tarbiya xususiyatlari
3.3. Maxalla - o’smirlarda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllanishida ulkan axamiyat kasb etuvchi ijtimoiy institut sifatida
Bob bo’yicha xulosalar

**3-BOB GLOBALLAShUVJARAYoNIDAO’SMIRYoShLARDAVATANPARVARLIKQADRIYaTLARINIShAKLLANTIRIShNINGIJTIMOIYPSIXOLOGIKZARURATI**

**3.1** “Axborot iste’moli madaniyati” –o’smir yoshlarda vatnaparvarlik qadriyatlarini shakllantirshning muxim ijtimoiy –psixologik omili sifatida
3.2O’smirlarda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirish jarayonida ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy psixologik usul va vositalari
3.3.O’smirlarning vatanparvrlik haqidagi tushunchalari va hissiy- emotsional yaqinlik munosabatlarining psixologik xususiyatlari
Bob bo’yicha xulosalar

**XULOSA**

**FOYDALANILGAN ADABIYoTLAR RO’YXATI**

# Kirish

**Mavzuning dolzarbligi**: O'zbek xalqi o'z mustaqilligini qo'lga kirgizganidan buyon yoshlarimiz va bolalarimiz ma'naviy -ahloqiy tarbiyasi tizimida Vatan tuyg'usi, vatanga ehtiqod, vatanparvarlik, insonparvarlik va mehr-muruvvat his-tuyg'ularini shakllantirish, ularni o'z xalqi va vatanining sodiq farzandlari qilib tarbiyalash hayotimiz mahnaviyati va mazmuniga aylanmoqda. Vatanparvarlik kishilarning eng qadimiy va asrlar davomida sayqal topgan to'yg'ularidan biri bo'lib, hamma vaqt konkret – ijtimoiy psixologikmazmunga, o'ziga xoslikka ega. Buning oqibatida vatanparvarlikning milliy va umuminsoniy qadriyatlar yuzaga kelgan.

Prezidentimiz I.A.Karimov «Chindan ham, vatan to'yg'usi, vatan tushunchasi biz uchun sajdagohday pok va ulug' bo'lmog'i kerak. Vatanni ardoqlash, uni yomon ko'zlardan va harakatlardan asrab-avaylash, himoyalash, kerak bo'lsa, ona yurtimiz uchun jonimizni ham fido qilishdek buyuk insoniy fazilatni o'rganmog'imiz lozim.» deya bugungi kun yurtiga, ona-Vatanga cheksiz muhabbat tuyg'usini qalbida mujassam etgan, dili pok, mahrifatga tashna barkamol yoshlarni tarbiyalash o'qituvchilar va ziyolilar oldida turgan ulkan vazifa ekanligiga urg'u berar ekanlar, vatanga va insonga sadoqat, vatanparvarlik va insonparvarlik qadriyatarini yoshlarimiz tarbiyasiga singdirib borish kerakligini uqtirib: «Avvalambor bizning tayanchimiz va suyanchimiz, umidimiz va kelajagimiz bo'lmish farzandlarimizni, yosh avlodimizni Vatan va insonparvarlik tuyg'usi va maqsadi ruhida tarbiyalashimiz ham qarz, ham farzdir deya ta'kidlaganlar**.**[2,4].

Insonnin ma'naviy etukligi undagi vatanparvarlik, insonparvarlik va mehr-muruvvat qadriyatlarini shakllanishi zamirida paydo bo'luvchi, shakllanuvchi va shaxs ma'naviyatini belgilovchi qadriyatlar bilan belgilanadi

Mustaqil O'zbekistonning kelajagi, ko'p jihatdan, barkamol avlod tarbiyasiga bog'liq. Buning uchun dono xalqimizning va mutafakkirlarimizning durdona fikrlariga rioya qilib, yoshlarimizga bolalikdan boshlab ajdodlarimiz tomonidan qo'llab kelingan eng xalqchil odob namunalari va qadriyatarni ta'lim tarbiya jarayonida o'rgatib borishimiz zarur.

Pedagog va psixolog olimlar olib borgan ilmiy tadqiqot ishlarining natijalari va bu borada O'zbekistan hukumati tomonidan, shaxsan Prezidentimiz Islom Karimov tashabbuslari va rahbarliklarida inson shaxsi va manfaatlari, bolalar tarbiyasi, oila, sog'lom avlod kabi bolalarimiz va xalqimizning manfaatlarini ko'zlovchi qator hujjat va qarorlar qabul qilindi Hayotimizning barcha sohalarida, respublikamizning milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda, avlod-ajdodlarimizning azaliy turmush tarzi, an'analari, urf odatlari va ko'nikmalarini xisobga olib, bolalarimizda o'z vatani va xalqiga mehr, samimiylik qadriyat tuyg'ularini shakllantirish, ularni rivojlanitirish, tarbiya nazariyasi va amaliyotiga tadbiq etish muhim dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi**: O'zbekiston pedagoglarivapsixologlari M.G Davletshin, E. G'oziev, M. Vohidov, E. Iskandarov, , Q. Daminov S.Annamuratova, R.Ahliddinov, S.Bulatov, A.Jabborov, Zunnunov, Inomova, H.Yo'ldoshev, V.Karimova, U.Maxkamov, O.Musurmonova, S.Nishonova, G'.Shoumarov, T.Qurbonov, M.Quronov, Z.Nishonova, , E.G'oziev, O.Hasanboevalarningtadqiqotlarida yosh avlodni vatanparvaroik qadriyatlarini shakllanishiuchunmuhimbo'lgan estetik, axloqiy, milliy-maonaviy, psixologikmasalalarishlabchiqilgan

**Tadqiqot ishining maqsadi: O'**smirlarda vatanparvarlik qadriyatlarining shakllanishi va amal qilishining ijtimoiy psixologik xususiyatlarini tahlil qilish asosida ularda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirishning ijtimoiy psixologik omillari sohasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlarning uslubiyotini belgilashga qaratilgan. Tadqiqot ishining ushbu maqsadidan kelib chiqib, quyidagi vazifalarni bajarish nazarda tutilgan:

**Tadqiqot vazifalari:**

- Vatanparvarlik tuyg'usi shakllantiruvchi ommaviy axborot vositalari materiallarini o'rganish

-Vatan vatanparvarlik xaqida O'rta Osiy allmalari fikrlarini o'rganish

-O'zbek va xorij psixologlari tadqiqotlarida vatanparlik tuyg'usini shakllantirishning ijtimoiy psixologik nazaryailari taxlilni amalga oshirish

-Vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirshda oilaning ijtimoiy psixologik o'riini aniqlash

-O'smir ta'lim tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi pedagoglar ota- onalar ijtimoiy xizmat xodimlari uchun amaliy tavsiya ishlab chiqish

**Tadqiqot predmeti:** O'smirlarda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirishning ijtimoiy psixologik xususiyatlari

**Tadqiqotning obhekti:**O'smirlardagi vatanparvarlik qadriyatlarining ijtimoiy psixologik mexanizmlari Tadqiqotda 12- 14 yoshdagi 50 ta sinaluvchi ishtirok etdi

-**Tadqiqot uslubiyati va uslublari.**

**Tadqiqot uslubiyotini** psixologiya fanining tamoyillari (determinizm, ong va faoliyat birligi, taraqqiyot), kontseptsiyalari (S.L. Rubinshteyn, A.N. Leontg'ev, B.T. Anang'ev ), O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», Prezident I.A.Karimov asarlaridagi g'oyalar, Sharq va g'arb allomalari, ma'naviyat madaniyat darg'alarining yoshlarda kasbiy bilim va ko'nikmalarni, shaxsiy fazilatlarni shakllantirishga oid ta'limotlari, yosh avlodga kasb-hunar o'rgatish to'g'risida etakchi falsafiy, psixologik, pedagogik nazariyalari, g'oyalari, kasbiy ta'lim - tarbiya jarayonining pedagogik texnologiyalar to'g'risidagi kontsepsiyalar tashkil qiladi

**Tadqiqot farazi:** O’smirlar ta’lim tarbiyasida vatanaparvarlik qadriyatlarni shakllantirib ta’lim muassasi, oila va jamoatchilikning o’zaro yaqin xamkorligi asosida olib borilishi o’smirlarda ,mutaqil fikrlash, ijtimoiy faollik,mashuliyat xissini tarkib topishi asosida vatnparlik fadriyatlarini shakllanishi, barkamol shaxs tarbiyasi uchun zarur bo’lgan shart-sharoitlarni yaratish imkoniyatini beradi

**Tadqiqot metodlari** :

**1.**Nazariy tadqiqot doirasida ilmiy adabiyotlarning psixologik tahlili.

2.O’smirlar “ Vatanparvar inson qanday bo’lishi kerak ?” mavzusida ijodiy insho.

3.Kontent taxlil

4. Dissertant tomonidan ishlab chiqilgan eksperimental anketa so’rovnomasi;

5. Kuzatuv va suhbat metodi.

Tadqiqot bazasi **:** Bo’z tumani Pedagogika kolleji

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi va haqqoniyligitadqiqotning metodologik bazasi, tadqiqotning adekvat metodikalarini amalga oshirilishi, tanlovning etarli darajadagi reprezentativliligi, tashkil qiladi .

**Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar**:

1.O’smirlarda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirishning ijtimoiy psixologik xususiyatlari o’rganish bevosita ulardagi yosh va indiivdual topologik xususiyatlarining psixologik diagnostikasi natijalarini asoida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq

2. O’smirlarda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirishning ijtimoiy psixologik xususiyatlari ta’lim jarayonida olib borilshida xar bir fan o’qituvchisi tomonidan amalga oshirilishi zarur

3 Ijobiy emotsiyalar o’smirlarda vatanparlik qadriyatlarini shakllaknishiga ,xamda ruhiy va jismoniy taraqqiyotlariga ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

3. Globallashuv jarayonida o’smirlarda vatnparvarlik qadriyatlarini shakllantirish ularda axborot istehmoli madaniyatini shakllantirish ishlari bilan uzviy bog’likda oli borilishi zarur

**-Tadqiqot natijalarining ilmiy jihatdan yangilik darajasi**

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda vatanparvarlik mavzusida muayyan darajada tadqiqot ishlari olib borildi: ommabop kitob va risolalar, ilmiy va o’quv uslubiy qo’llanmalar chop etildi. G’ Davletshin, V.Karimova, N.Safaev va boshqalar yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy etnik xususiyatlar borasidagi ilmiy fikr va muloxazalari ilmiy e’tiborga molikdir. Ushbu izlanishlarda asosiy e’tibor vatanparvarlikning mazmun-mohiyatiga, hozirgi kunda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalalariga qaratilgan. Ammo sohaga oid metodologik masalalar, xususan, vatanparvarlikning shakllanish va amal qilishining ijtimoiy psixologik qonuniyatlari shu vaqtga qadar etarlicha o’rganilmagan

Dissertatsion ishining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asar-laridagi g'oyalar, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi, "Yoshlar yili" va "Sog'lom bola yili "Davlat dasturi shuningdek, Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti "Psixologiya" kafedrasining ilmiy tadqiqot yo'nalishiga mos keladi.

**-Ish tuzilishi va tarkibi**:Dissertatsiya kirish3 ta bob 8 ta bo'lim.xulosa foydalanlgan adabiyotlar ro'yxati xamda ilovadan iborat

## 1BOB PSIXOLOGIYa FANIDA O'SMIRLARDA VATANPARVARLIK QARIYaTLARINI ShAKLLANTIRISh MUAMMOSINING NAZARIY-METODOLOGIK XUSUSIYaTLARI

### 1.2 O'smirlarda vatanparvarvarlik qadriyatlarini shakllantirish masalasining o'rganilganlik xolati

Qadimgi yunon faylasufi (mil.avv. 384-322) Arastu fikricha, «maqsad emas, balki unga etish vositalari hal qiluvchi o'rinni egallaydi». Ma'naviy merosimiz hisoblangan epik rivoyatlarda, jumladan, «Avesto», "Go'ro'g'li", "Alpomish" dostonlari, Firdavsiyning «Shohnoma», Maxmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'atit-turk», va qator boshqa asarlarda ajdodlarimizning vatanni, xalqni sevish, or-nomus va do'stlariga sadoqat kabi sifatlariga ularning asosiy ijtimoiy xislatlari, deb qaralgan. .[17,19].

Zardushtiylik ta'limoti talablariga: o'g'rilik va birovning mulkiga xiyonat qilmaslik, ayollarga, ayniqsa homiladorlarga g'amxo'rlik qilish, er sug'orish, daraxt ekish, o'z vaqtida uylanish va bolalarga g'amxo'rlik qilish kabi masalalar kiradi. «Avesto» da yana er, suv va havo muqaddas hisoblanib, ularga hurmat va ehtiromda bo'lishga dahvat etilgan.

Sharq ilk jonlanish davri ( 9 – 11 asrlar ) allomalari Islom aqidalarida tarbiyalanib, ularni hayot da bir necha bor sinovlardan utkazib, xikmatli so'zlar orqali bizlarga etkazishga harakat kilganlar. Jumladan, Abu Rayxon Beruniy: «Barcha illatlarning asosiy sababi bilimsizlikda», - degan ekanlar. Abu Ali ibn Sino: «Xaqiqatni bilish uchun bilimga ega bo'lishi kerak, lekin xar qanday bilim ham xaqiqatga olib kelavermaydi. O'z bilimining haqiqiyligini bilish uchun mantiqni bilish zarur», - deganlar. O'rta asrlar Markaziy Osiyo allomalari va 19 –

asrdagi jadidlar harakati namoyondalari ham kishining insoniy sifatlariga alohida to'xtalib, komil inson siymosining asosiy belgilari ( xislatlari ) ni ko'rsatganlar. Bu davrda yashagan mutafakkir olim, shoir va donishmandlarning asarlarida, ijtimoiy taraqqiyot uchun muhim bo'lgan insoniy sifatlar – insonparvarlik, bilimga ehtiqod, xalq manfaatini himoya qilish, mahnaviyatni yuksaltirish, komil inson va etuk jamoaga erishish kabi masalalar yoritilgan.

Sharqning buyuk mutafakkirlari va allomalari o'zlarinnng butun ijod faoliyatlarini shaxs ma'naviy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishga qaratganlar.Aynan ana shu xususiyati bilan sharq mutafakkirlarining ijodiy faoliyatlari g'arb mutafakkirlariniki bilan farqlanib turadi. Masalan, Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida mardlik, tug'riso'zlik, mahrifat bulog'idan baxramand bo'lish sari kuchli darajadagi intilish, mexnatsevarlik, katta yoshdagi kishilarga xurmat-ehtirom bilan munosabatda bo'lish, davlat va xalq manfaatlarini o'z manfaatidan ustun ko'rish, shuningdek sadoqatli sevgi-muxabbat kabi insoniy fazilatlar o'z ifodasini topgan bo'lib, shoir shu orqali shaxs ma'naviy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish asoslarini ko'rsatib berishga xarakat qilgan. Farxodga mamlakatni boshqarish imkoniyati berilganda,u o'zining xali ancha yosh ekanligini, bu borada xali tajribaga ega emasligini, bu ishni undan yoshi katta bo'lgan va davlat boshqaruvi bo'yicha ancha tajribaga ega bo'lgan kishilar qo'lga olsa yaxshi bo'lishini tahkidlab bu taklifni qabul qilmaydi. Vaholanki, Farxod bu borada yaxshi ilm va mahoratga ega ekanligi bilan saroy ayonlari o'rtasida ham, oddiy xalq orasida ham yaxshigina shuxrat topgan edi. Shoir Farxodning ushbu xatti-xarakati bilan qo'yidagi ma'naviy madaniyatni rivojlantiruvchi fazilatlarni ko'rsatib berishga xarakat kilgan:

**1.** O'zini-o'zi baxolay bilish va biror- bir yuklatilayotgan vazifa bo'yicha mashuliyatni chuqur xis qila bilish.

**2.** Biror-bir ish yuzasidan qaror qabul qilishda shoshmasdan uzoqni ko'rib xarakat qilish.

**3.** Yoshi katta va tajribasi ko'p bo'lgan odamlarga xurmat bilan munosabatda bo'lish va ular tajribasidan o'rnak olishga intilish.

**4.** Mansabparastlik illatidan o'zini yiroqda tutish.

Shuningdek, soxibkiron Amir Temur o'z tuzuklarida juda ko'plab tarbiyaviy axamiyatga molik bo'lgan ko'rsatmalarni berib o'tgan. Ayniqsa, u kishining davlat boshqarish faoliyatiga faqat va faqat adolat bilan endashish kerakligi, ilm-ziyo axliga doimo adolatli munosabatda bo'lish kerakligi, kambag'al fuqaroga doimo mexr-muruvvat ko'rsatish kerakligi va milliy qadriyatlarni barqaror tarzda ximoya qilish kerakligi tug'risidagi fikr-muloxazalari bevosita ma'naviy madaniyatni shakllantirishda juda katta axamiyatga egadir.

Forobiyning «Fozil odamlar shahri» asarida demokratiyaning asosiy mezonlaridan biri bo'lgan ***qonunlarni*** joriy qilish muammosi keng yoritilgan. Forobiyning fikriga ko'ra, chinakam qonun o'rnatuvchi yangi qonun qabul qilinayotganida mamlakatdagi barcha tabaqalar, avlodlarga, viloyatlar aholisiga baxt-saodat, shod-hurramlik, erkinlik va farovonlik keltiri-shini hisobga oladi. Qonun turli-tuman fehl-atvor hamda xislatlarga ega bo'lgan odamlar xayrixohlik bilan kutib olishiga arziydigan bo'lishi zarur.

Forobiyning fikriga ko'ra, saodatga oqillik va unga hamisha intilib yashash orqali erishish mumkin. Shunday ekan, qonun mustahkam ruh va oqil idrok tarbiyasiga yo'naltirilgandagina farovonlik tomon etaklaydi. Demak, rahbar xalq, ommani tarbiyalashga, uning ruhi va idrokini mustahkamlashga harakat qilmog'i zarur. Qadimiy ajdodlarimiz insoniy mezon qilib olgan, har bir kishidan talab qilinuvchi bu ijobiy xislatlarni jamlab, ularni tartibga solib chiqsak, quyidagi ijtimoiy sifatlar tizimi gavdalanadi: birinchi o'rinda jasurlik, keyin – bilimdonlik, uddaburonlik, vatanparvarvarlik, mehnatsevarlik, odamiylik, axloq va odoblilik, do'stlik, tejamkorlik va saramjonlik xislatlari turgan. Bunday xislatlarni shakllantirishda ham diniy, ham dunyoviy asarlar muhim o'rin egallagan.
Barkamol inson haqidagi yuksak g'oyalar Abu Nasr Forobiy va Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarning asarlarida, ayniqsa teran ifoda etilgan.

Aslida ***komil inson,*** bu - tariqat va riyozat yo'li bilan qo'lga kiradigan yuksak martabadir. Voiz Koshifay «Futuvvatnomai sultoniy» asarida tasavvufning komillikka daxldor binosi o'nta asosga qurilgani aytiladi: 1) ilm; 2) hilm; 3) taqvo; 4) saho; 5) shukr; 6) sidq; 7) vafo; 8) rizo; 9) safro; 10) ishq. **.**[17.19].

E.Yusupov o'zining «Inson kamolotining ma'naviy asoslari»[23].

nomli asarida ma'naviyat inson ma'naviyati, uning shakllanish bosqichlari, shaxs ma'naviyatini shakllantirishda alohida o'rin tutuvchi omillar, mahnaviyatga erishishning ijtimoiy-axloqiy ahamiyati, shuningdek, shaxsning psixologik xususiyatlariga tayangan holda uning mahnaviyatini shakllantirish shartlari haqida so'z yuritadi. Ishning e'tiborli jihati vatanparvarvarlikning mahnaviyati yuksak insonga xos bo'lgan fazilat ekanligiga alohida urg'u beriladi. Shuningdek, «vatanparvarlik» tushunchasi sharhlanadi. Muallifning fikricha, «vatanparvarlik – o'z taqdirini vatan, millat taqdiri bilan bog'lagan barcha kishilarga xos fazilat. Millat taraqqiyotining imkoniyatlari, shon-shuhrati, obro'-e'tibori ham shu millat kishilaridagi vatanparvarvarlik qadriyatlarining shakllanganlik darajasi bilan bog'liqdir» [23].

M.Sharifxo'jaev "Iftixor" [20].. nomli kitobida kelajagi buyuk davlat bilan haqli ravishda faxrlanish qadriyatlari, mustaqillik yillarida respublikadaerishilgan yutuqlar to'g'risidagi qarashlarini ifodalagan [20].. Muallif ehtiqod va vatanparvarvarlik haqida

to'xtalib, o'zbek xalqi tarixini puxta o'rganish, milliy an'analari va urf-odatlarini tiklash, uni hozirgi zamon yutuqlari bilan boyitish zarurligiga urg'u beradi.

B.Aminov, T.Rasulov o'zlarining "Vatan - yurakdagi javohir" [43] nomli kitoblarida o'quvchi yoshlarda milliy va vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirish, ularni Vataniga fidoyilik, iymon-ehtiqodlilik, ota-bobolarmerosi, pand-nasihatlariga sadoqatli bo'lish ruhida tarbiyalashga doir o'quv materiallarini taqdim etganlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «O'zbekiston - muqaddas Vatan, ota-bobolarmiz yotgan er. Farzandlarimizni shu zaminga sadoqat ruhidatarbiyalash, ularning qalblarida shu muborak zaminning har qarichiga mehru muhabbatuyg'otish - bugungi kunning eng ustuvor fazilatlaridan biriga aylanayotgani hammamizni quvontiradi O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov o'z nutq va asarlarida xalqimiz ma'naviyatida odamlarimiz yuraklariga o'zi yashab turgan zaminida yashab turuvchi fuqoro, kerak bo'lsa, o'z jonini ayamasligi, bolalarimizning yoshlik paytlaridanoq Vatanga mehrini shakllantirib borish haqida kuyinib gapiradi: «Avvalambor bizning tayanchimiz va suyanchimiz, umidimiz va kelajagimiz bo'lmish farzandlarimizni, yosh avlodlarimizni Vatan va vatanparvarvarlik tuyg'u va maqsadi yo'lida tarbiyalashimiz ham qarz, ham farzdir.deya ta'kidlaganlar .[2,3,4].

Psixologiya fanlari doktori, professor Z.Nishonova «barkamol inson» tushunchasiga quyidagicha tahrif beradi: «barkamol inson – bu o'zligini, o'z qobiliyatini har tomonlama namoyon eta oladigan, aqlan etuk, yuksak iste'dod va salohiyatga ega bo'lgan, ma'naviy yuksak, axloqan pok, jismonan sog'lom, hayot go'zalliklarini his eta oladigan erkin, ijodkor shaxsdir» [ 34].

Muallif tomonidan sharq mutafakkirlari ilgari surgan ma'naviy -axloqiy qarashlarning komil insonni shakllantirish tarixida tutgan o'rni va bugungi kun uchun ahamiyatining ochib berilishi ta'lim muassasalarida ma'naviy - axloqiy tarbiyani samarali tashkil etilishi uchun muhim yo'riqnoma bo'lib xizmat qiladi.

Psixologik adabiyotlarda vatnaparvarlik qadriyatlarini shakllantirishda milliy «g'urur» va «iftixor» tushunchalari, o'rganilayotgan ob'ekt nuqtai nazaridan ham individual, ham ijtimoiy xususiyatni namoyon eta oladi. Zero, shaxs g'ururi – bu muayyan shaxsga xos bo'lgan psixologik xususiyat bo'lib, u shaxsning ijtimoiy mavqei (masalan, ma'lum millat vakili sifatidagi mavqei), shaxsiy xususiyatlar, turmush tarzi, kasbiy yoki ijtimoiy faoliyat, erishilgan muvaffaqiyatlardan qoniqish hosil qilish sanaladi. Milliy g'urur qadriyatlariga egalik ma'lum millatga mansub shaxsning ana shu millatning jahon hamjamiyatida tutgan o'rni, mavqei,

insoniyat taraqqiyoti va tsivilizatsiyasiga qo'shgan hissasini anglash, faxrlanish va qoniqish demakdir.

Vatanparvarlik – bu muayyan millatga mansublik va bu millat tomonidan jahon madaniyatiga qo'shilgan hissadan faxrlanish, shuningdek, o'zi mansub bo'lgan millatga sadoqatli bo'lish hissini tuyish va bu yo'lda amaliy faoliyat ko'rsatishdan iboratdir.

S.Ochilov "Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari"[ 35].asarida O'zbekiston mustaqilligi davrida amalga oshirilayotgan islohotlar, ro'y berayotgan tarbiyaviy jarayonlar yoritilgan .Muallif shu o'rinda quyidagi fikrni ilgari suradi: "Tarbiya berish deganda ... o'yin davomida, uy yumushlari jarayonida, ta'lim va ilm o'rganishvaqtida hayot va turmush saboqlarining siyosiy yo'sinda tushuntirishni, qolaversa, shaxsiy o'rnak ko'rsatish holatini tushunmoq va bilmoq;lozim. Shu omillar bir-biri bilan ko'shib olib borilishi kerak" – deydi . Uning fikricha, "Inson asosanikki yo'l bilan tarbiyalanishi lozim: birovlarning bevositata'siri, yahni, o'rgatishi, shuningdek, donolar fikrlari, o'gitlari va asarlarini o'qish orqali inson o'zining fikrlashi, odamlarhatti-harakatida, qilgan va qilayotgan ishlarida tegishli xulosalar chiqarib olishi; eng qudratlisi - tafakkur vositasida tarbiyalanishi mumkin". Muallif Prezident Islom Karimovninghayoti va ilmiy-ijodiy, rahbarlikfaoliyati va dunyoqarashidagi o'ziga xos milliylik, shaxsi va shaxsiy o'rnakligi, hayot va turmush tajribalarini, zukkoligi va kamtarligi, tadbirkorligi va tashabbuskorligi, hurfikrligi,mardligi va jasurliginipedagogik nuqtai nazardano'rganish zarurligini aytadi. U o'rganilgan shu namunalar majmuasini yosh avlodga tarbiyaviy yo'llanma va qo'llanma sifatida tavsiya etish maqsadga muvofiq ekanligini tahkidlaydi.

O'smir yoshlarni vatnaparvarlik qadriyatlarini shakllanishifaqat nazariy bilimlar bo'lish chegaralanmaydi. Vatanga, millatga xizmat qilish uchun, uning manfaatlarini himoya qiluvchi, fidoiy o'smir- yoshlargina uning kelajagi uchun qayg'uradi .

Kelajakda etuk mutaxassis kadrlar bo'lib, mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa soxalarida faoliyat ko'rsatuvchi o'smir yoshlar, ongida, dunyoqarashida vatanparvarlik qadriyatlarini qanchalik chuqur o'rin egallasa, ularning ijtimoiy faolligi asosida shakllanadilar

Respublika psixolog olimlar tomonidan ma'naviyat masalasiga doir o'tkazgan tadqiqotlarida milliy qadriyatlar va uning yosh avlodni kamol toptirishdagi usul va vositalari taxlil qilingan

O'smir-yoshlar tarbiyasi - jamiyatning asosiy vazifalaridan biridir. Tarbiya yordamida avlodlarning sinalgan, eng ma'qul, taraqqiyparvar tajribasi o'zlashtiriladi va yangi avlodga etkaziladi, odamlarning ongi, hulqiy ko'rinishlariga shu jamiyatda qabul

qilingan axloq me’yorlari singdiriladi,ularga nisbatan ongli munosabat shakllanadi

Binobarin, o’smirlar dunyoqarashida e’tiqod va vatanparvarvarlik qadriyatlarini shakllantirish va rivojlantirish, barqaror ehtiqodga aylantirish ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biridir.

Mustaqillikning mohiyatini yanada chuqur, puxta anglash, Vatanni sevish, u bilan faxrlanish, Vatan sharafini himoya qilish uchun O’smirlar nimalarga e’tibor berishi kerakligini ta’lim-tarbiya jarayonida ular ongiga singdirish muhim ahamiyatga ega.

Yuqorida ko’rib chiqilgan manbalar mazmunidan shu narsa ayon bo’ldiki, o’smirlarda e’tiqod va vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirishning mazmuni, metodlari, shakl va vositalarini yoritib berish psixologiya fanida o’z echimini kutayotgan dolzarb muammodir.

O’smirlarda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirish masalasi bo’yicha izlanish olib borgan Z.Qurbaniyazova «milliy o’zlikni anglash» "[ 35].qadriyatlarining mohiyatini yoritish bilan birga bu qadriyatning tarkibiy qismlari to’g’risida quyidagi fikrni ilgari suradi: «Milliy o’zlikni anglash – bu barcha insoniy fazilatlarning ibtidosi bo’lib, xalqimiz tarixiy xotirasi, ijtimoiy-ma’naviy hayoti, milliy merosi, urf-odat va an’analari, qadriyatlari, ruhiyati haqida mustahkam bilim, ko’nikma va malakalar birligiga erishish, ularni ongli ravishda baholash, ma’naviy his-qadriyatlarning ijobiy bo’lishiga erishish, o’zini ongli ravishda boshqarish, Vatan qadriyatlari bilan yashash, uning taraqqiyotiga o’z hissasini qo’shish; ona tilini ehzozlash va boshqa millatlarga hurmat ila munosabatda bo’lish kabi fazilatlarni o’zida mujassamlashtirish majmuidir

O’smirlarga milliy mansublik, millatning o’tmishi, tarixining o’ziga xosligiga oid ma’lumotlarga ega bo’lish imkonini beradi. Zero, o’z xalqi tarixini anglamagan inson o’zining jamiyatdagi o’rni, turli millatlar orasidagi mavqeini belgilay olmaydi. Ijtimoiy mavqega ega bo’lmagan inson esa mustaqil fikrlay, turli vaziyatlarda o’zi qaror qabul qila olmaydi. Shu bois u qaramlik, mutehlik va qullikka mahkum bo’ladi.

O’smirlarda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirish jarayonida ulardagi kelajakka bo’lgan ishonch, istiqbolli rejalar tuzish va intilish hisslarini uyg’otadi. Kelajakka ishonch shaxsda ruhiy bardamlik, irodaviy xususiyatlarni shakllanishi va namoyon bo’lishi tetiklikni tarbiyalaydi, murakkab, o’ta qiyin vaziyatlarda ham mantiqiy fikrlash asosida vaziyatdan chiqa olish uchun harakat qilishiga turtki beradi.

Vatanparvarlik qadriyatlarini shakllanishida milliy urf-odat, an’ana va qadriyatlar, ularda ilgari surilgan g’oyalar inson ruhiyatining shakllanishi, unda ma’naviy -axloqiy sifatlarni tarbiyalashga xizmat qiladi. Milliylikni belgilovchi omillardan biri urf-odat, an’ana va qadriyatlardir. Shu

sababli inson ham millat vakillaridan biri sifatida milliy urf-odat, an’ana va qadriyatlarni asrash, ularni yanada boyitish ijtimoiy psixologik zaruratga aylanib bormoqda O’z navbatida milliy urf-odat, an’ana va qadriyatlar g’oyalarining millat ravnaqi, insoniyat taraqqiyotiga xizmat qilishi bilan faxrlanish O’smirlarning e’tiqod va vatanparvarvarlikqadriyatlariga ega bo’lishlarini ta’minlaydi. O’quv-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda O’smirlarni milliy urf-odat, an’ana va qadriyatlarni asrash, ularni boyitish uchun harakat qila olish ko’nikmalarini tarbiyalashga e’tiborni qaratish maqsadga muvofiq.

5. Ishlab chiqarish va ijod sohalarida samarali faoliyat yuritayotgan zamona qahramonlarini O’smirlarga tanishtirishga alohida e’tibor qaratish va bu yo’lda faollik ko’rsatish.

6.O’smirlarda shaxsiy manfaatlarini jamoa manfaaatidan yuqori qo’ymaslik, , jamiyat va millat oldidagi insoniy burchlarini to’laqonli anglashlari, xalq baxt-saodati hamda yurt farovonligi yo’lida mehnat qilishga intilishlari erishish uchun psixologik va pedagogik sharoit yaratish.

7. O’smirlar o’rtasida vatanparvarvarlik g’oyalarini targ’ib etuvchi qiziqarli tadbirlarning keng ko’lam va yuksak saviyada tashkil etish an’anasini qayta tiklash.

8 O’smirlarda vatanparvarvarlik qadriyatlarini shakllantirishning psixologik-pedagogik va falsafiy jihatlarini yaxlit holda o’rganilishiga erishish, mazkur jarayonni tashkil etishning samarali yo’llari, omillari va vositalarini etarli darajada o’rganish

Demak, O’smirlarda vatanparvarvarlik qadriyatlariga ega bo’lishlarini tahminlashda va bu jarayonni yaxlit tashkil etish, unda har bir samarali omildan maqsadli foydalanish, imkoniyatlarni ko’ra olish va ularning samaradorligini baholash muhim ahamiyatga ega.

## 1.2O’SMIR ShAXSI RIVOJLANIShINING YoSh VA IJTIMOIY PSIXOLOGIK XUSUSIYaTLARI

O’smirlik yoshi - bu ularning xatti-harakatlarida doimo suyanadigan dunyoqarashning, ahloqiy ishonch printsipi hamda ideallarining shakllanishi, mulohaza yuritish va ijtimoiy hodisalarni baholash tizimining tarkib topish davridir

O’smirlik davrida sodir etilgan xatti-harakatdan qoniqish yoki qoniqmaslik xulq-atvor shakllanish sharti, barqarorlik uning tavsiflaridan biri hisoblanadi. I.S.Kon ko’rsatganidek, “Jamiyat oldidagi burch tuyg’usi yaqin kishilarga nisbatan alohida majburiyatlarni yo’qqa chiqarmaydi, umumlashtirilgan boshqa (qoidalarga) yo’naltirilganlik boshqalarning aniq bir fikriga quloq solishni istisno etmaydi.

Bu borada o’smirlarda atrofida ro’y berayotgan ijtimoiy voqelikka nisbatan qiziqishlarning ortishi, shu bilan birgalikda ularni aniq mantiqiy xulosa chiqarish va qarorlar qabul qilishda xali xayotiy tajribaning etishmasligini e’tibordan chetda qoldirish mumkin emas

O'smirlarda vatanparvarlik tarbiyasida ularda ijtimoiy faollikni keltirib chiqaruvchi emotsional xissiy xolatlar asosiy omillardan biri sanaladi Ma'lumki inson hissiyotlarningmanbalari (yokisabablari), birtomondan, inson ongidaaks etayotgantevarak-atrofdagivoqelikbo'lsa, ikkinchitomondan, insonning ehtiyojlarimazmuni,intilishlarikiradi. Intilishlar esahamisha ehtiyojniifodalaydi. O'smirdagi ijobiy hissiyotlar, odatda, undagi intilishlarnitug'diradiyokimavjudintilishlarnikuchaytiradi

Ayrimsalbiyhissiyotlarvaqtida o'smir harakatlarini kelib chiqishida aloxida axamiyat kasb etadi, masalan, g'azab, nafrathislarivaqtidabizningharakatlarimizshu emotsionalkechinmalargasababbo'lgannarsatomongayo'naladi. Buningsababishuki, insonda shunarsaniyo'qqilishyokiuningharakatinibostirishharakatitug'iladi. Mustaqilvatanimizningdushmanlari, terorizmga, diniyaqidaparastlikka, vahobizmganisbatan o'smirdagi g'azabvanafrat xissiyotlari asosida vatanni asrash, uni muqaddas sanalishi,vatan tinchligi va ravnaqini ximoya qilish tuyg'ulari shakllanadi

O'z tengdoshlari bilan tenglik asosida qilintan muammolar munosabat asosida o'smir alohida bir ijtimoiy munosabatlar maktabini o'taydi, o'zaro qiziqishlar, atrof dunyoni, bir-birlarini anglashlari va tushuiishlari ular uchun juda qimmatlidir. usmirlar uchun uy vazifalari, uy ishlari buyicha majburiyatlarni bajarishga qaraganda tengdoshlari bilan muloqot qilish muhimrokdir. O'z ishlarini sirlarini bola endi ota-onasiga emas, balki tengdoshiga ko'proq ishonadi, U endi salbiy va ijobiy tomonlariga alohida bir urgu bermagan holda o'zi xohlagan kishisi bilan dust bo'lish xuquqini talab etadi. O'z tengdoshlari bilan muloqot va munosabat jarayonida o'z shaxsini erkinlik bilan tula namoyon eta oladi. Shaxsiy erkinlikni u kataa bo'lish huquqi deb anglaydi. Ota-nalarning o'smirga shu erkinlikning bermasligi yoki usmirning shunday deb bilishi natijasida ular ota-onaga qarshi pozitsiyada buladilar, Shuni alohida. tahkidlash lozimki, ana shu muloqot va munosabat asosida usmirlarda gurur hissi shakllana boshlaydi, Albatta, g'urur norma va qoidalari kattalardan urganiladi, lekin uz g'ururini qanday himoya qilishi o'smirlarning alohida nazoratida bo'ladi. Ular orasida sodiqlik va to'g'rilik kabi xislatlar yuqori baholanib, sotqinlik o'z so'ziga bevafolik, egoizm, qizgonchiqlik qattiq qoralanadi va qattiq jazolanadi. Bu jazo u bilan uripshsh, kaltaklash unga qarshi baykot ehlon qilish va uni yolgizlatib qo'yish shaklida bulishi mumkin. O'smirlar o'zini hurmat qilishini, o'z fikrini va qiziqishini himoya qilishni bilmagan tengdoshlariga juda past baho beradilar.

Balog'at davrida o'g'il qizlar o'zlarini kattalardek xis etish bilan birga boshqalar ham ularni aqilli, xushli, or-nomusli, katta odam deb hisoblashlarini xohlaydilar. Katta yoo'dagi begona

kishilarga taqlid qilish odati kuchayadi. Atrofdagilarning nima bilan shug'ullanayotganligi, nimaga e'tibor berayotganligi, o'zlarini qanday tutayotganligiga razm soladilar. Tabiiyki, o'smirda o'ziga yoqib qolgan, ko'ngliga mahqul tushgan shaxsday bo'lish havasi tug'iladi. Ammo afsuski, kattalar boladagi ana shunday o'zgarishlarni yo payqamay qolishadi, yoki sezishsa ham u narsalarga etarli darajada ahamiyat berishmaydi. Kattalar tomonidan o'rinsiz tanbeh berish, kesatish, do'q-po'pisa qilishlar o'smir hissiyotida noxush kechinmalarni vujudga keltiradi. Mazkur davrda u o'ta ta'sirchan, hamma narsani ko'ngliga yaqin oladigan bo'lib qoladi. Turmush jarayonida ta'lim va tarbiyada buni hisobga olish darkor. Yuqorida aytib o'tganimizdek, o'zini kattalardek xis qilayotgan o'smirga biror yumush buyurganda uddalay olishiga ishonch bildirgan yo'sinda « sen endi katta bolasan, bu ish qo'lingdan keladi » kabi so'zlar bilan murojaat qilish uning quvonchiga quvonch qo'shadi

O'smirlik davrida dunyoniavvalgidanham go'zalhis etsa, uningyoshqalbidavatanparvarliktuyg'usiyanadakuchliuyg'onadi. Kelajakkabo'lganishonch, istiqbolli rejalar tuzadi

O'smirlar xayotida uchrab turdigan muammolarni xal etishni o'rganishi xam lozim Ulardanegabunday? Nimauchunshundaybo'lishikerak? Muammoni to'g'ri xal etish uchun qaysi yo'lni tnalish kerak?"kabimuammolisavollarpaydobo'lsin. Bukabisavollarechimi topishda o'smir uchun emotsional yaqin bo'lgan insonlar ota -ona o'qituvchi, tengdoshlari fikrlarini o'smir uchun axamiyatlilik darajasi yuqoriligni tahkidlab o'tish zarur O'smirda boshqalar baxtsizligiga qayg'urish, achinish, ularga yordam berishga astoydil intilish, hayajonlanishholatlarini yuzagakelishi asosida, dunyoniyanadaaniqroqidrokqilish ehtiyojipaydobo'ladi,. O'smirlik davrida Emotsiya va hissiyotlar ma'lum yo'nalishga ega bo'ladi:[1]

a) o'smirda hayotiy vaziyatining o'zgarishiga bog'liq ravishda emotsional holatlarning shakllanishi;

b) emotsiyalar asosida oliy hissiyotlarning o'zgarishi;

v) emotsiya va hissiyotlarning shaxsiy tuzilmalar orasida yangi tuzilma sifatida shakllanib borishi.

O'smirlar emotsiyalarida ijobiy yoki salbiy mimik reaktsiyalar namoyon bo'ladi.

Shubhasiz, ijobiy emotsiyalar o'smirlarning ruhiy va jismoniy taraqqiyotlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Biroq, o'smir biror shodlik yoki ruhiy ko'tarinkilikni mehnatsiz, kuch sarflamay, tayyor holda qo'lga kirgizaversa, ertami, kechmi unda sovuqqonlik, yalqovlik paydo bo'lishi ham mumkin. Shuning uchun ularning faoliyat jarayonida tirishib, intilib qo'lga kirzilgan muvaffaqqiyatlarigina rag'batlantirilib, qo'llab borilishi muhim.

[1] Нишонова З., Алимова Г. Болалар психологияси ва уни ўқитиш методикаси. Тошкент, 2006, 88-бет.

O’smir  salbiy kechinmalari esa qo’rquv, jahl, xavotirlanish,  uni o’rab turgan ijtimoiy muxitdan begonalashuv, va h.k kabi holatlarida namoyon bo’lishi mumkin.

O’smirlar  his-tuyg’ularining mazmuni va o’sish dinamikasi uni o’rab turgan ijtimoiy muxit , tengdoshlari, ommaviy axborot vositalarita’sirida o’zgarib boradi .

Bularning rivojlanish dinamikasi muayyan ijtimoiy vaziyatlarda shakllangan ijtimoliy ustanovkalar tarzida namoyon bo’ladi .

Ma’lumki yangi xulqiy streotiplar paydo bo’lishigacha sezilarli muddat o’tadi. Lekin bu muddat ichida o’smirdagi o’zgarish (qo’zg’alish) tormozlanishdan ustun kelishi mumkin. O’smirning xulqida  paydo bo’layotgan ijobiy emotsiyalarining jo’shqin ifodalanishini tormozlay ololmasligi tufayli, unda qarama-qarshi emotsiyalar paydo bo’lishi mumkin..

O’smirlik davrida  oliy hislar tobora ko’proq uning  xulq-atvori motivlariga aylanib boradi.

O’smirlik davri  xususiyatlaridan biri taqlidchanlikdir

Frantsuz psixologi E.Dyurkgeym, inson taqlid qilish qobiliyati bilan tug’ilishi, o’smir yoshiga etganida esa taqlid faqat tanlov asosida amalga oshiriladigan jarayon bo’lib, ijtimoiy tajribani keng ma’noda egallay boshlashi, natijada uning xarakteri, temperamenti, qiziqishlari ham shakllanishini, tushuntirgan  [ 66]

. Xarakterning tarkib topishida taqlidchanlikning ahamiyati ko’p jihatdan ifodali ish-harakatlarning odam emotsional kechinmalariga ta’siri bilan izohlanadi. Odamlarga ochiq ko’ngillik bilan jilmayib turgan paytda ularga nisbatan g’azablanish va ko’ngli qoralik hissini kechirish ancha qiyin bo’ladi. Aksincha, odamlar bilan qo’pol va ko’ngilsiz tarzda gaplashayotgan paytda ularga nisbatan xushko’ngillik hamda mehribonlik hislarini kechirish ham juda  dushvor. Shuning uchun o’smir xushfehl, mehribon odamning imo-ishoralarini, yuzidagi ifodali harakatlarini, ovozining intonatsiyalarini tashqaridan taqlid qilish orqali o’ziga singdirib olgan bo’lsa, taqlid qilish tufayli mana shunday ifodali harakatlar va imo-ishoralar odatga aylanib, harakatlarini belgilovchi kechinmalarning ichki tuzilishi ham o’zgaradi. Xuddi ana shuning uchun sof tashqi taqlidchanlik asosida faqat harakatning avtomatlashuvi hosil qilinar ekan, taqlidchanlik xarakterning shakllanishi va rivojlanishida asosiy va hal qiluvchi rolni o’ynay qolmaydi

Taqlidchanlik xatti-harakat namunasiga taqlid qilish uchun mo’ljallangan shaxsning ma’lum munosabatlari tomonidan motivlashtirilgan bo’lgandagina, xarakter xususiyatlari taraqqiyotining shartiga aylana oladi. Masalan, sevimli o’qituvchiga, qandaydir taniqli shaxsga, adabiy qahramonga yoki tarixiy bir shaxsga taqlid qilish tufayli xarakter taraqqiyotida  o’zgarishlar yuzaga kelishi mumkin.

Amerikalik psixolog U. Jeyms, taqlidni bosqichlarga ajratadi. Uningcha, birinchi bosqichi sezgilardan boshlanib butun borliq uning uchun tajriba elementlaridan tashkil topadi. Ikkinchi

bosqich, inson tafakkurida mavhum fikr yuritish qobiliyatini rivojlantirar ekan, u o’zini boshqa mavjudotlardan ajratib olishni o’rganadi. O’z oldiga maqsad qilib, uni ongli ravishda bajarishga intilishi haqidagi fikrini bayon qilgan[73].

Taqlidning xususiyatlariga oid fenomenlar ham mavjud bo’lib, ular qatoriga konformizm va nonkonformizm hodisalarini kiritish mumkin[73].

Konformizm – ijtimoiy psixologik hodisa bo’lib, u shaxsni o’rab turgan muhitta’siriga beriluvchanligi va beriluvchanlik darajasini tushuntirib beradi. Konformizm – o’zgalar borlig’idan, ularning xulq-atvoridan ta’sirlanish demakdir. Yoshlar qanchalik o’ziga xoslikka intilmasinlar, baribir, fikrlashlarda, harakatlarda ajralib turishga intilishlari – aslida o’sha taqlidchanlik, konformizmning bir ko’rinishidir. Shu bois faylasuf Seneka konformizm va odamlardagi taqlidchanlikni “ko’pchilikning amriga osonlikcha bo’ysunishdir” deb tahriflagan edi. [8] Bu jarayonning ro’y berishiga sabab bo’ladigan asosiy omillar esa o’sha ijtimoiy muhit va undagi obro’li shaxsning xususiyatlaridir. Shuning uchun ham biz nimalarga ishonamiz va kimlarga ergashamiz, degan masala bugungi kunda amaliy ahamiyatga molikdir. Unga teskari bo’lgan nonkonformizm esa ayrim olingan shaxs yoki guruhning boshqa bir shaxs yoki ijtimoiy guruh ta’siriga berilmasligi, o’zida unga nisbatan qathiy bir qarshilikning mavjud bo’lishini ifodalovchi holati yoki ayrim mutaxassislarning tahkidlashlaricha, «psixologik immunitetning mavjudligidir”. Amerikalik olim Devid Mayersning yozishicha, konformizm hodisasining o’zi ikki xil tarzda namoyon bo’lishi mumkin: [21]

***yon berish***-dildan qo’shilmasa-da, lekin tashqi harakatda ko’pchilik fikriga ergashish;

***mahqullash***–ehtiqod va qarashlarning ijtimoiy tazyiqqa to’la moslashishi[21].

Nima uchun odamlar konformizmni namoyon etadilar, ko’pchilikning ta’siriga, masalan, bolalar kattalarning tazyiqlariga o’ylamay-netmay berilaveradilar, degan savol g’arb ijtimoiy psixologiyasida muhim o’rin tutadi. Ularning fikricha, konformizm shaxsning o’zligiga, mustaqilligiga putur etkazishi mumkin, degan xavotir o’rinli bo’lib, uning javobini ikki manbadan – jamiyatning insonlar uchun yaratgan mehyorlari tizimi, shunga mos tarzda shaxsning o’zgalar tomonidan tan olinishiga intilishi hamda odamlarning o’zaro kommunikativ ma’lumotlar almashinishlari jarayonida so’zlar va iboralar yordamida bir-birlariga o’tkazadigan ta’sirlari orqali tushuntirishga harakat qilinadi.

Kim konformizmga ko’proq beriluvchan-,degan savolga ko’pchilik mualliflar, xususan, g’arb olimlari ayollarning erkaklarga, bolalarning kattalarga nisbatan ancha ishonuvchan va ta’sirlarga beriluvchan ekanliklarini ehtirof etadilar. Bundan tashqari, olimlar bu hodisaning milliy-hududiy o’ziga xosliklarini va bu kabi xulq-atvor ayrim tang vaziyatlarda odam irodasining zaiflashuvi sifatida namoyon bo’lishini tahkidlashgan. Nima bo’lganda ham, bizningcha, shaxsning tashqi tazyiqqa berilishi, tanqidsiz u yoki bu harakat tiplariga bo’ysunishi individual xususiyatlarga ega

bo’lib, u odamning dunyoqarashiga, mentalitetiga va ma’lumotlilik darajasiga, irodasiga, unda shakllangan ijtimoiy tasavvurlar tizimiga bog’liqdir.

Yuqorida tahkidlaganimizdek, konformizmga qarama-qarshi hodisa nonkonformizm deb atalib, bu o’zgalar tazyiqiga berilmaslik bo’lsa-da, baribir ko’pchilikning irodasi, ijtimoiy fikrning tabiiy tarzda inson ongiga va diqqat-e’tiboriga singish qonuniyatini chetlab o’tolmaydi. Ayniqsa, oilada ota va onalarning, oiladagi kattalar – buvi va bobolarning ta’siri albatta sezilarli bo’ladi. Faqat kattalarning o’sha tazyiqlar yoki ijobiy ta’sirlarni saralash imkoniyatiga ega bo’lgan fahm-farosatli farzand ularning o’gitlari va xulq andozalaridan tegishli xulosalar chiqaradi va shu orqali u o’zida mustaqil fikr borligini namoyish eta oladi.

Shuning uchun ham konformizm bilan nonkonformizm hodisalari parallel ravishda o’rganilganidek, oila muhitidagi taqlidchanlik va mustaqil fikrlilik fenomeni ham parallel tarzda tadqiq etiladi.

O’zbekistonda ham bu holat psixolog olimlarning e’tiborini o’ziga tortgan. Professor V.M.Karimovaning qator ilmiy tadqiqot ishlari ota yoki onasiz tarbiyalangan bolalarning xulq-atvorlariga bag’ishlangan. Aniqlanishicha, otasiz oilada tarbiya topayotgan o’g’il bolalarda erkaklarga xos fehl-atvor xususiyatlarining sustroq rivojlanishi ma’lum bo’lgan. Otasiz o’sgan bolalar ota-onasi bor bolalarga nisbatan qiziqqonroq va ijtimoiy qo’llab-quvvatlovga muhtoj bo’ladilar. Bunday bolalarga boshqa omillarning ta’siri ham kuchli bo’ladi. Shu bilan birga, otaning yo’qligi oilada boshqa erkaklarning mavjudligi (bobo, amaki, tog’a, katta aka va h.k) bilan to’ldirilishi mumkin, degan g’oya ilgari surilgan[47,14]. Bahzan esa oilada otaning psixologik ravishda “yo’q” bo’lishi ham o’g’il bola tarbiyasiga salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin. Psixolog I.S.Kletsinaning fikricha, otaning yo’qligi o’g’il bolalarning tarbiyasiga turli yoshda, turlicha ta’sir qiladi. Otaning o’limi yoki oiladan qachon ketganligiga qarab bolada o’ziga xos fehl-atvor xususiyatlari shakllanadi. Bolada jinsiy mansublilik (orientatsiya) va jinsiy moyillik, mutanosiblik oilada erkak kishi, ayniqsa, otaning mavjudligiga bog’liq. Ayniqsa, o’smirlikda o’g’il bola uchun ota roli juda muhimdir. Ammo jinsiy xulq-atvorning shakllanishi bundan mustasno[13,20].

O’smirlar vatanparvarlik xislari ulardagi ichki motivatsion omil sifatida shakllanishi ulkan tarbiyaviy axamiyat kasb etadi

O’smir yoshlarda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirish, ularda xissiy motivatsion munosabatlarni tarkib toptirishda quyidagishart-sharoitlargaamalqilishzarur:

-o’quvchilardavatanparvarliknishakllantiririshniijtimoiyhayotsharoitlaribilanbog’labolibborish;

-o’quvchilarniijtimoiyyo’naltirish, ijtimoiyfaolliginioshirishgaqaratilganamaliyfaoliyatnitashkil etish;

-ijtimoiyonglilikijtimoiyhayotvaziyatlaridanto’g’riyo’ltopibchiqaolishmaonaviyatlilik, komillikbelgisi ekanliginitushuntirish;

-o’smir-yoshlarda mas’uliyat, mustaqilfikrlashmalakalarnishakllantirish

-O’smirlik davri “O’tish” xususiyatlarini to’ g’ri tushunish, ulardagi yosh va individual xususiyatlarni e’tibordan chetda qoldirmaslik

Shunita’kidlashmumkinki, jahonhamjamiyatidaijtimoiysiyosiyvaziyatlarningkeskinlashayotganbirsharoitidao’quvchiyoshlardavatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirish ulkan ijtimoiy psixologik axamiyatga molik bo’lgan masalalardan biri bo’lib qolmoqda.

## BOB BO’YIChA XULOSALAR

-Sharqning buyuk mutafakkirlari va allomalari o’zlarinnng butun ijod faoliyatlarini shaxs ma’naviy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishga qaratganlar.Aynan ana shu xususiyati bilan sharq mutafakkirlarining ijodiy faoliyatlari g’arb mutafakkirlariniki bilan farqlanib turadi

-Respublika psixolog olimlar tomonidan ma’naviyat masalasiga doir o’tkazgan tadqiqotlarida milliy qadriyatlar va uning yosh avlodni kamol toptirishdagi usul va vositalari taxlil qilingan

-O’smirlarda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirish jarayonida ulardagi kelajakka bo’lgan ishonch, istiqbolli rejalar tuzish va intilish hisslarini uyg’otadi. Kelajakka ishonch shaxsda ruhiy bardamlik, irodaviy xususiyatlarni shakllanishi va namoyon bo’lishi tetiklikni tarbiyalaydi, murakkab, o’ta qiyin vaziyatlarda ham mantiqiy fikrlash asosida vaziyatdan chiqa olish uchun harakat qilishiga turtki beradi

-O’smirlik davrida sodir etilgan xatti-harakatdan qoniqish yoki qoniqmaslik xulq-atvor shakllanish sharti, barqarorlik uning tavsiflaridan biri hisoblanadi. I.S.Kon ko’rsatganidek, “Jamiyat oldidagi burch tuyg’usi yaqin kishilarga nisbatan alohida majburiyatlarni yo’qqa chiqarmaydi, umumlashtirilgan boshqa (qoidalarga) yo’naltirilganlik boshqalarning aniq bir fikriga quloq solishni istisno etmayd

- O’smirlarda vatanparvarlik tarbiyasida ularda ijtimoiy faollikni keltirib chiqaruvchi emotsional xissiy xolatlar asosiy omillardan biri sanaladi -O’smirlar vatanparvarlik qadriyatlari ulardagi ichki motivatsion omil sifatida shakllanishi ulkan tarbiyaviy axamiyat kasb etadi

-Vatnparvarlik qadriyatlarini shaklantirish bo’yicha olib boriladigan psixologik tarbiyaviy ishlarda aslo o’smir shaxsiga bosim o’tkazmaslik. Uning fikri va “ Men” obrazini xurmat qilish aosida olib borilishi zarur

## 2BOB O’SMIRLIK DAVRIDA VATANPARVARLIK QADRIYaTLARINI ShAKLLANIShINING IJTIMOIY PSIXOLOGIK OMILLARI

### 2.1Ta’lim jarayonida o’smirlarda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllanishi

Ta’lim-tarbiya tizimidagi islohotlar boshlangan dastlabki yillarda jahon tajribasi va hayotda o’zini ko’p bor oqlagan haqiqatdan kelib chiqib, agar bu maqsadlarimizni muvaffaqiyatli ravishda amalga oshira olsak, tez orada hayotimizda ijobiy ma’nodagi «portlash effekti»ga, yahni yangi ta’lim modelining kuchli samarasiga erishamiz, degan fikr bugun amalda o’z tasdig’ini

Prezident Islom Karimov 2005 yil 28 yanvarda O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo’shma majlisida «Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir» mavzuidagi mahruzasida «Bizning asosiy uzoq muddatli va strategik vazifamiz avvalgicha qoladi - bu demokratik davlat, fuqarolik jamiyatini qurish jarayonlari va bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlash yo’lidan og’ishmay, izchil va qathiyat bilan borishdir» degan edi.

